

OT KUL'TI VA U BILAN BOG'LIQ O'ZBEKISTONDAGI ARXEOLOGIK TOPILMALAR TALQINIGA DOIR

Murodaliyev Raxmonali Xaydarali o‘g‘li
O‘zR FA Milliy arxeologiya markazi ilmiy xodimi
rakhmonmurod@mail.ru

ANNOTATSIYA

Maqolada ot kul'ti, uning qadimgi davr ko'mish udumlariga ta'siri va o'zbek xalqi turmushi va diniy dunyoqarashida tutgan o'rni haqida so'z yuritilgan. Arxeologik tadqiqotlar davomida qayd etilgan ot va ot anjomlari bilan bog'liq ko'mish an'anasi mamlakatimiz hududida "ilk ko'chmanchilar" davridan mayjud bo'lib, ilk o'rta asrlarda ko'chmanchi turkiy xalqlar bilan birga uning yangi to'lqini kirib keladi. Ot bilan bilan bog'liq diniy udumlar transformatsiyaga uchrab bugungi kunimizgacha yashab kelmoqdadir.

Kalit so'zlar: *ot, ko'mish udumi, ot kul'ti, ko'chmanchi, qabr.*

ON THE INTERPRETATION OF THE CULT OF HORSE AND THE ASSOCIATED ARCHAEOLOGICAL FINDS IN UZBEKISTAN

ABSTRACT

The article deals the cult of the horse, its influence on ancient burial practices and its role in the life and religious worldview of the Uzbek people. The tradition of burial associated with horse and horse equipment recorded during archaeological research exists on the territory of our country from the time of the "early nomads", and in the early Middle Ages, along with nomadic Turkic peoples, its new wave enters. The religious devotions associated with the horse have undergone transformation and continue to live to our present day.

Key words: *horse, burial custom, the cult of horse, nomad, burial.*

KIRISH

Kishiliq tarixida ot – qadim zamonlardan alohida ahamiyatga ega bo'lib, tarixiy manbalarda ta'kidlanganidek, Yevrosiyo dashtlari ilk xonakilashtirilgan otlarning vatani hisoblanadi. Mutaxassislar bunday otlarning paydo bo'lishini eradan oldingi III ming yillik bilan davrlashtirishgan [1].

Ot, ayniqsa, ko'chmanchi xalqlar ma'naviy madaniyatida, milliy udum va e'tiqodlarida, fol'klor va tasviriy san'atida muhim o'rinn egallaydi. Ot – jangchining

dono maslahatchisi va safdoshi, folchisi va tabibidir. Oltoyaliklar e'tiqodida bugungi kungacha, ot egasiga narigi dunyoda ham hamroh bo'lishi kerakligi borasidagi qadimgi ildizlarga ega dunyoqarash saqlanib qolgan [2].

Ma'lumki, ot totemi dunyoning turli xalqlari orasida keng tarqalgan. O'tmishdagi ko'plab marosim va udumlar aynan shu totemistik e'tiqod bilan bog'liq bo'lgan. Turkiy xalqlar, xususan, o'zbeklar tarixida bu totem muhim o'rinn tutgan bo'lib, uning izlari bugungi kunda ko'plab marosimlarda saqlanib qolgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ishda tarixiylik, obyektivlik, qiyosiy va mantiqiy-dialektik tahlil usullaridan foydalanilgan holda arxeologik materiallar va adabiyyotlar tahlil qilingan. Arxeologik qazishmalarda aniqlangan ot kul'ti bilan bo'g'liq ko'mish udumlarini etnografik ma'lumotlar bilan mos kelishi masalalari tadqiq etilgan.

NATIJALAR

Ilk bronza davridan boshlab Yevrosiyo dasht mintaqasida ot kul'ti shakllana boshlaydi. Bu qadimgi ko'chmanchi xalqlarning xo'jaligi va harbiy-siyosiy hayotida otning muhim o'rnini anglatadi. Yevrosiyo xalqlari orasida otning quyosh bilan qiyoslanishi ikki jihatga ega bo'lib, bir tomondan, tong oti, ya'ni, chiqayotgan quyosh – yerdagi tiriklikni; unga qarama-qarshi ot esa botuvchi quyosh – yer osti dunyosini ramzi bo'lgan. Bu esa abadiy qarama-qarshiliklar – kecha-kunduz, o'lim va hayot tushunchalari orqali mintaqadagi hind-yevropa va turkiy xalqlarning epik an'analari, dafn yodgorliklari va marosimlarida o'z aksini topgan [3]. S. P. Tolstov ta'kidlashicha, massagetlarning asosiy totemlaridan biri bo'lgan ot, ming yillar davomida "chavandoz qiyofasidagi xudo" tariqasida ularning davlat ramzi bo'lib kelgan [4].

O'rta Osiyo hududida ot kul'ti bilan bog'liq ko'mish udumi "ilk ko'chmachilar" davriga borib taqaladi [5]. Er. boshlanishi arafasida esa qabrlarda "chavandoz holatida" dafn etish yoki otning to'shi va boshini qabr tortig'i sifatida qo'yish vujudga kela boshlaydi [6]. Toshkent viloyatining Piskent tumanida joylashgan Murotali mozor-qo'rg'onidan aniqlangan katakomba tipidagi qabrda mayit yonida otning to'sh qismi va yugan qismlari aniqlangan [7]. Ayni shu davrga oid yana bir ot boshi ko'milgan kenotaf qabr Jizzax viloyatining G'allaorol tumanida joylashgan Chayonli mozor-qo'rg'onidan aniqlangan [8].

Ilk o'rta asrlarda O'zbekiston hududida aniqlangan ot yoki ot anjomlari bilan ko'mish udumi qadimgi turklar bilan kirib kelgan an'ana hisoblanadi. Bunday ko'mish holatlari Samarqand shahridagi Ulug'bek rasadxonasi yaqinida aniqlangan qabrdha [9], Andijon viloyatidagi Dalvarzintepa yodgorligi hududida [10], Farg'ona viloyatidagi Arsif mozor-qo'rg'onida [11], Toshkent viloyatidagi So'ngak mozor-qo'rg'onida [12] qayd etilgan. So'ngak mozor-qo'rg'onida aniqlangan ot anjomlari bilan ko'mish

an'anasi Chochning tog'li hududlarida ushbu udumning mavjud bo'lganini ko'rsatadi [13, 14].

Qadimgi turklar otni gapira oladigan va ucha oladigan jonzot deb tushunishgan. Kundalik hayotda muhim o'rinni egallagan ot, keyinchalik muqaddas topinchga aylangan. Turkiy xalqlar qadimdan o'zlarini otlarsiz tasavvur qila olmaganlar. Ularning odatiga ko'ra, jangchini suyukli ot hamrohligida dafn qilish kerak edi. Agar qarindoshlarning bunday imkoniyati bo'lmasa, qabrga ot anjomlari qo'yilgan. Bundan tashqari, qadimgi turklar orasida otlar qurbanlik qilish uchun ham mo'ljallangan. Bu qurbanlikning mohiyati – Tangriga muhabbat ko'rsatish va rahm-shafqat so'rashdan iborat edi. Qadimgi massagetlar ham eng buyuk va eng tezkor xudo – Quyoshga, «eng tezkor hayvon – otni qurbanlik keltirganlar» [15].

MUHOKAMA

Qadim zamonlardan ko'plab xalqlarda jangchini xotini bilan, uy-ro'zg'or buyumlari va oziq-ovqat bilan dafn etish odati bo'lgan. Bu marosimlar animizm bilan bog'liq bo'lib, inson ruhi narigi dunyoda yashashi haqidagi g'oyalarni aks ettiradi. Odamni oti bilan birga dafn etish odati er. old. VIII-VII asrlardagi skiflar davridan boshlab keng tarqalgan [16]. Turk olimi Osman Turan "Marhumni ot va ot anjomlari bilan dafn qilish sababi qadimgi turklarning marhum jannatga otda boradi, degan e'tiqodidadir" [17], deb qayd etgan edi. Shuni ham qayd etish kerakki, "narigi dunyo"ga borishda asosiy vositachi bo'lgan otni anjomlari bilan qabrga qo'yilishi diniy tasavvurlarni boyitibgina qolmasdan, o'sha davr kishilarining estetik olami, hunarmandchiligi, kasblar haqida ham qiziqarli ma'lumotlar beradi.

O'zbeklarning dafn marosimlarida ot totemining yodgorliklari saqlanib qolgan. Yaqin o'tmishda badavlat kishi vafot etsa, yaqin oila a'zolari, qarindoshlari marhumning kiyim-kechaklarini otiga tashlab, jonivorni aylanib, marhumning yaxshi fazilatlari, ezgu ishlarini eslab yurishgan. Shunday qilib, qarindoshlar o'lgan odamga motam tutishgan. Bu marosim "otga davra solish" (otni aylanib chiqish) deb atalgan. Marosim oxirida dumini kesib, ot qo'yib yuborilgan; bu otni boshqa hech kim minmagan. Kesilgan dum bu otning egasi vafot etganini anglatgan. V. V. Radlov qozoqlarda ham shunday odat borligini yozgan [18]. Elshunos A. Ashirov ta'kidlashicha, ot atrofida aylanishni qadim davrdagi otni va ot anjomlarini marhum bilan birga ko'mish odatining transformatsiyasi sifatida ko'rish mumkin [19].

Farg'ona vodiysi qipchoqlarida ot totemiga bog'liq urug'lar – to'rt ayg'ir, samanotli, jetti-qashka, to'ri-sariy, qulon, qora baytal kabilar bo'lgan. K. Sh. Shoniyofov, qadimda qipchoqlarning ayrim oilalari otni afsonaviy nasl sifatida e'zozlaganliklarini keltirgan [20]. Keyinchalik, ot totemi funksional jihatdan o'zgarib, dafn marosimlarida qurbanlik bilan bog'langan [21]. O'zbek xalq eposi "Alpomish"ga

ko‘ra, *jangovar* ot inson nutqini tushunadi, qahramonni xavfdan ogohlantiradi, maslahat beradi, jangchi yaralanganda uni jang maydonidan olib chiqib ketadi. Qisqa vaqt ichida suvsiz cho‘lni bosib o‘tib, baland tog‘lar, gavjum o‘rmonlardan o‘tib, chavandozini kerakli manzilga yetkaza oladi [22].

Turkiy xalqlarning epik va mifologik an'analarida qahramonning yaqin qarindoshi va do‘sti bo‘lgan epik oq ot yoki bo‘z (ko‘k) ot sifatida tasvirlangan. Umuman olganda, qadimda otning rangi ham ramziy ma’noga ega bo‘lgan. Muvaffaqiyatga erishgan hukmdorlar, g‘oliblar va sarkardalar oq otda bosib olingan shaharlarga tantanali ravishda kirishgan. Turklar orasida oq rang muvaffaqiyat, g‘alaba va omad ramzi hisoblangan. Xalq og‘zaki ijodida “ot chavandozning qanoti” iborasi bor, ertaklarda otlar bosh qahramonning yordamchisi sifatida tasvirlangan [23].

O‘zbeklar otning boshiga urishni gunoh deb bilishgan. Sharq taqvimi bo‘yicha ot yili boshlanganda, xalq bu yil serhosil va mo‘l-ko‘lchilik yili bo‘lishiga ishongan. Agar qiz tushida otni ko‘rsa, uning uyiga sotuvchilar kelishadi va yigit uchun bunday tush maqomni ko‘tarilishni va’da qiladi, degan keng tarqalgan e’tiqodlar mavjud. Bundan tashqari, qora otning junidan chachvonlar, paranjaning chimmatlari - ayolning yuzini qoplaydigan to‘r to‘qilgan. Go‘dakning bo‘yniga yaxshi tilaklar bilan otning juni bog‘langan. Xomilador ayolni turli yovuz ruhlardan himoya qilish uchun kirish eshigi tepasiga ot yugani osilgan. Bu etnografik tafsilotlarning barchasi otning sehrli himoya vositasi sifatida talqin qilinishini ko‘rsatadi.

Mahalliy aholining e’tiqodiga ko‘ra, chorvachilikning har bir hududining o‘z homiysi va shafoatchisi bo‘lgan, ularning sharafiga har yili qurbanliklar qilingan. Shunday qilib, Qambar ota, Cho‘pon ota – qo‘y va yilqichilikning, Zangi ota qoramolning, Chig‘at ota echkichilikning himoyachi homiyalari hisoblanishgan [24].

Ot bilan bog‘liq ko‘plab ziyoratgohlar mavjud. Ular orasida butun arab dunyosida tanilgan va ko‘plab musulmon mamlakatlarida yarim afsonaviy xarakterga aylangan xalifa Alining Duldul nomli oti ham bor. Islom dini qabul qilingandan keyin O‘rta Osiyo xalqlari tuyeq izlariga o‘xhash chuqurliklarni xalifa Alining Duldul otining izlari sifatida qabul qilgan. Duldul bilan bog‘liq joylar haqida X. Hasanov shunday yozgan: “Amudaryoning Xorazmga kiraverishida, daryoning ikki qirg‘og‘ida toshlar ko‘rinib turadi, ular haqida Duldul oti o‘tgan, deyishadi”. Kofarnihon daryosi bo‘yida, O‘zbekiston va Tojikiston chegarasida joylashgan Xonako‘ qishlog‘ida shunday nomdagagi qirg‘oqlar bor. Hisorning Janbuloq qishlog‘ida ham okrugi jumhurii Tojikiston «Poyi Duldul» borki, u ziyoratgoh hisoblangan, shunga o‘xhashi G‘arbiy Xitoyning Uchturfon shahrida joylashgan [25]. Farg‘ona vodiysida ham afsonaviy Duldul oti bilan bog‘liq muqaddas joylar qayd etilgan. O‘sh viloyatining Aravon tumanida Duldul-ota qabri bor; Chillaxonai Hazrati Ali ham shu yerda joylashgan.

Rivoyatlarga ko‘ra, u shu yerda otini bog‘lagan va Devi Safed (Oq Dev) bilan jang qilish uchun Chilustun g‘origa ketgan [26]. Farg‘ona viloyatining So‘x tumanidagi Duldul ota ziyoratgohi, Qo‘qon yaqinidagi Kishnog‘ich sayyohlik maqbarasi ham afsonaviy uchar ot bilan bog‘liq. Shubhasiz, turli toponim va ziyoratgohlarning ot bilan, xususan, Duldul oti bilan bog‘lanishi bu uy hayvonlarini ilohiylashtirish va muqaddaslashtirish shakllaridan biridir. Umuman olganda, yuqoridagi fikrlardan kelib chiqadigan bo‘lsak, o‘zbeklarning qadimgi ajdodlari otni osmonda ucha oladigan, xavf-xatarni oldindan ko‘ra bilish, do‘stni dushmanidan ajrata oladigan aqlii hayvon va ilohiy mo‘jiza hisoblagan. Shu jumladan, ot muqaddas totem sifatida e’zozlangan [27].

XULOSA

Xulosa sifatida aytish mumkinki, “narigi dunyo”ga borishda asosiy vositachi bo‘lgan otni anjomlari bilan qabrga qo‘yilishi diniy tasavvurlarni boyitibgina qolmasdan, o‘sha davr kishilarining estetik olami, hunarmandchiligi, kasblar haqida ham qiziqarli ma’lumotlar beradi.

Shuningdek, ko‘chmanchi xalqlar diniy dunyoqarashida o‘ziga xos jihatlarni aks ettiradi. Choch hududi aholisida ham bunday belgilar kuzatilib, vohaga kirib kelgan madaniy-diniy yangiliklar ko‘chmanchi chorvador aholiga ham ta’sir qilmay qolmaydi. O‘z navbatida, ko‘chmanchi xalqlar bilan kirib kelgan dafn etish bilan bog‘liq udumlar Chochning tog‘li tegralarida yangicha amaliyotlar qo‘llana boshlanishiga turtki bo‘ldi. Bunda ot kul’ti bilan bog‘liq diniy qarashlar alohida ahamiyat kasb etdi. Asrlar davomida O‘zbekiston xalqlari kundalik turmushi va diniy dunyoqarashida ot bilan bog‘liq udumlar hamda folk’lor shakllandi.

Demak, arxeologik tadqiqotlar davomida qayd etilgan ot va ot anjomlari bilan bog‘liq ko‘mish an’anasi mamlakatimiz hududida “ilk ko‘chmanchilar” davridan mavjud bo‘lib, ilk o‘rta asrlarda ko‘chmanchi turkiy xalqlar bilan birga uning yangi to‘lqini kirib keladi. Ot bilan bilan bog‘liq diniy udumlar transformatsiyaga uchrab bugungi kunimizgacha yashab kelmoqdadir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Кузьмина, И.Е. (1997) Лошади Северной Евразии от плиоцен до современности. – Санкт Петербург. – С. 111.
2. Потапов, Л.П. (1977) Конь в верованиях и эпосе народов Саяно-Алтая // Фольклор и этнография. Связи фольклора с древними преданиями и обрядами. – Ленинград. – С. 164. (164-178).
3. Аджигалиев, С.И. (1994) Генезис традиционной погребально-культовой архитектуры Западного Казахстана (На основе исследования мангышлакских форм). – Алматы. – С. 128.
4. Толстов, С.П. (1948) Древний Хорезм. – Москва. – С. 202.

5. Кузмина, Е.Е. (1977) Кон в религии и искусстве саков и скифов. – Москва. – С. 69; Итина, М.А. (1977) История степных племен южного Приаралья. – Москва: Наука. – С. 128.
6. Вайнберг, Б.И., Левина Л.М. (1993) Низовья Сырдарьи в древности. Выпуск I. Чирикрабатская культура. – Москва. – С. 38; Обельченко, О.В. (1992) Культура античного Согда (по археологическим данным VII в. до н. э. – VII в. н. э.). – Москва: Наука. – С. 63-89. (254 с.)
7. Дресвянская, Г.Я. (1983) Типы захоронений курганного могильника у к. Актам (Пскентский район) // Материалы по археологии. Сб. науч. трудов ТашГУ, № 707. – Ташкент. – С. 27; Богомолов Г.И. (2005) Развитие погребальных сооружений раннесредневекового Чача // Ўзбекистон тарихи маддий маданият ва ёзма манбаларда. – Тошкент: Фан. – С. 187-196.
8. Тошбоев, Ф.Э. (2022) Чаёнли мозорқўрғонидаги от билан боғлиқ дағн маросимлари хақида // “Евроосиё халқлари маданий мероси: замонавий тадқиқотлар, муаммо ва ўрганиш усуллари” мавзусидаги халқаро илмий-амалий конференция материаллари. – Жиззах. – Б. 128-132.
9. Спиринский, В.И. (1951) Погребение с конем середины I тысячелетия н.э. обнаруженное около обсерватории Улугбека / Труды музея истории УзССР, 1. – Ташкент. – С. 32-37.
10. Заднепровский, Ю.А. (1967) Тюркские памятники в Фергане // СА, № 1. – С. 271-274.
11. Матбобоев, Б.Х., Иванов, Г.П. (1997) Найдены погребений с трупосожжением и конем в Фергане // ОНУ, № 5. – С. 72-75.
12. Maksud F., Muradaliyev R. (2020) Göktürkler ve üzenginin yayılması üzerine // Genel Türk tarihi araştırmaları dergisi. Cilt/Volume 2, Sayı/Issue 4, Temmuz /July. – SS. 287-302.
13. Муродалиев Р., Мирсаатова С. (2021) Сўнгак мозор-қўрғони топилмаси ва узангининг тарихдаги аҳамияти // Ўтмишга назар, 4-жилд. № 9. – Б. 34-43.
14. Muradaliyev R., Rashidov N. (2022) Taşkent Bölgesinin dağlık arazisinde bulunan Göktürk kağanlığı'na ait Süngek mezar kurganları hakkında yapılan çalışmalar // Genel Türk Tarihi Araştırmaları Dergisi, Vol. 4, No 8. – S. 953-970. https://doi.org/10.56292/SJFSU/vol28_iss3/a17
15. Геродот. (1972) История в девяти книгах // Перевод, примечания Г.А. Стратановского. – Ленинград. – С. 79.
16. Грязнов М. П. (1980) Аржан: Царский курган раннескифского времени. – Ленинград: Наука. – 62 с.

17. Turan O. (1969) *Turk cihan hakimiyeti mefkuresi tarihi*. Cilt 1. – Istanbul. – S. 51.
18. Радлов В.В. (1989) *Из Сибири*. – Москва. – С. 282.
19. Религии Центральной Азии и Азербайджана: Традиционные верования и шаманизм (Узбекистан) Том I. (2016) – Самарканд: МИЦАИ. – С. 219.
20. Шаниязов К. (1974) К этнической истории узбекского народа. – Ташкент. – С. 144.
21. Маркаев К. (2005) Тотемистик тасаввурлар билан боғлиқ этнонимлар // *Ўзбек тили ва адабиёти*, № 1. – Б. 94-95.
22. Мирзаев Т. (1968) Алпомиш достонининг ўзбек вариантлари. – Тошкент. – Б. 103.
23. Афзалов М.И. (1964) *Ўзбек эртаклари ҳақида*. – Тошкент.
24. Религии Центральной Азии и Азербайджана: Традиционные верования и шаманизм (Узбекистан) Том I. (2016) – Самарканд: МИЦАИ. – С. 219-220.
25. Климович Л.И. (1962) Ислам. – Москва. – С. 272.
26. Бернштам А.Н. (1952) Историко-археологические очерки Центрального Тянь-Шаня и Памиро-Алая. – Москва-Ленинград. – С. 226.
27. Религии Центральной Азии и Азербайджана: Традиционные верования и шаманизм (Узбекистан) Том I. (2016) – Самарканд: МИЦАИ. – С. 222.
28. Murodaliyev R.X. (2022) So‘ngak mozor-qo‘rg‘onining davrlashtirilishi xususida // FarDU. Ilmiy xabarlar, № 3. – B. 92-97.
https://doi.org/10.56292/SJFSU/vol28_iss3/a17